



### TADBIRKORLIKDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI (O‘zbekiston misolida)

**Sardorbek Jamoliddinovich Mirzaxalov,**

*Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20716800>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati uchun kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Unda dastlabki yillarda amalga oshirilgan islohotlar, kasb-hunar ta’limi tizimidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy islohotlar, xalqaro tajriba va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarning ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** tadbirkorlik, kadrlar tayyorlash tizimi, kasb-hunar ta’limi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, bandlik, mehnat bozori, kasbiy ko‘nikmalar, tadbirkorlik ta’limi, ayollar tadbirkorligi, xalqaro tajriba, kasb-hunar maktablari.

**Аннотация.** Данной статье анализируются этапы формирования и развития системы подготовки кадров для предпринимательской деятельности в Узбекистане. Освещаются реформы, осуществлённые в первые годы независимости, проблемы системы профессионального образования и пути их решения. Также раскрывается значение современных реформ, международного опыта и проектов, направленных на развитие женского предпринимательства.

**Ключевые слова:** предпринимательство, система подготовки кадров, профессиональное образование, малый бизнес, частное предпринимательство, занятость, рынок труда, профессиональные навыки, предпринимательское образование, женское предпринимательство, международный опыт, профессиональные школы.

**Abstract.** This article analyzes the stages of formation and development of the personnel training system for entrepreneurial activities in Uzbekistan. It examines the reforms implemented during the early years of independence, the challenges faced by the vocational education system, and the measures taken to address them. The study also highlights the significance of contemporary reforms, international experience, and projects aimed at promoting women's entrepreneurship.

**Keywords:** entrepreneurship, personnel training system, vocational education, small business, private entrepreneurship, employment, labor market, professional skills, entrepreneurship education, women's entrepreneurship, international experience, vocational schools.

**Kirish.** O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, aholining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etilishi orqali bandlikni ta’minlash, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalarni chuqur anglash va amaliyotdagi muammolarni samarali hal etish maqsadida soha uchun kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi. Bundan tashqari, mustaqillikning dastlabki yillarida ko‘plab yoshlar va ayollarning ishsizligi ularni tadbirkorlikka jalb etishning eng muhim yo‘li sifatida ularni o‘qitish, kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va ushbu sohada o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashishni dolzarb vazifaga aylantirdi.



Shu maqsadda 1993-yildan boshlab respublika hududidagi hunar-texnika bilim yurtlari hamda Xalq ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda "Band bo'lmagan aholini kasbga tayyorlash, qayta o'qitish va yoshlarni milliy hunarmandchilikka o'rgatishni muvofiqlashtiruvchi markaz" tashkil etildi.

Mazkur markaz faoliyati doirasida 1993-yilda Farg'ona viloyati bo'yicha o'tkazilgan tahliliy hisobotga ko'ra, hududda aholining tabiiy o'sish sur'ati o'rtacha 2,5–2,6 foizni tashkil etgan bo'lib, mehnat resurslari soni 1106,3 ming kishiga yetgan. Shu bilan birga, maktab bitiruvchilari va muddatli harbiy xizmatdan qaytgan yoshlar hisobiga 32 600 nafar ishsiz yosh mehnat bozori tizimida ro'yxatga olingan.

Mazkur ko'rsatkichlar o'sha davrda yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularning bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari naqadar dolzarb bo'lganini yaqqol namoyon etadi[1].

**Adabiyotlar tahlili.** Maqolani tayyorlashda arxiv hujjatlari, normativ-huquqiy manbalar, ilmiy adabiyotlar va elektron resurslardan foydalanildi. Farg'ona viloyati davlat arxivi hamda O'zbekiston Milliy arxivi materiallari mustaqillikning dastlabki yillarida aholini kasbga tayyorlash va tadbirkorlikka jalb etish jarayonlarini yoritadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari kasb-hunar ta'limi tizimini isloh qilishning huquqiy asoslarini ochib beradi. M. Boltaboyevaning tadqiqotlarida xotin-qizlarning tadbirkorlikdagi ishtiroki tahlil qilingan. Shuningdek, elektron manbalar kasb-hunar maktablari faoliyati va xalqaro loyihalarning tadbirkorlik uchun kadrlar tayyorlashdagi ahamiyatini yoritishga xizmat qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda tadbirkorlik uchun kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishini o'rganish maqsadida tarixiylik, tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tarixiylik metodi orqali kadrlar tayyorlash tizimining shakllanish bosqichlari va ularning o'zgarish dinamikasi o'rganildi. Tizimli yondashuv esa kasb-hunar ta'limi, mehnat bozori va tadbirkorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan solishtirildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar, arxiv hujjatlari va normativ-huquqiy manbalar asosida empirik tahlil amalga oshirildi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

**Tahlillar va natijalar.** Soha bo'yicha islohotlar izchil davom ettirilib, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatining turli yo'nalishlariga jalb etishga xizmat qiladigan ta'lim tizimini shakllantirish hamda uni xalqaro standartlarga moslashtirishni nazarda tutuvchi qarorlar qabul qilindi[2].

Mazkur maqsadlar ijrosini ta'minlash doirasida respublikaning barcha hududlarida kasb-hunar kollejlari tashkil etildi. Bu esa malakali kadrlar tayyorlash



tizimini takomillashtirish va yoshlarning kasbiy bilim hamda ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qildi. 1995-yilning o‘zida viloyat va tumanlarda 160 ta yangi turdagi kollejlari, maxsus ixtisoslashtirilgan litseylar ochildi[3].

Kollejlarda kadrlarni hududlar ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olmagan holda tayyorlashi bandlik bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqardi. Ko‘p hollarda bitiruvchilar hisobot uchungina, xususi korxonalariga 3-4 oydan keyin bo‘shatib yuborish shartlari bilan ishga joylashtirildi. Masalan, 2016-yilgi hisobotlarga ko‘ra 477743 nafar bitiruvchi yigit-qizlar o‘rta-maxsus ta‘lim maskanlarini bitirib chiqqan va ularning 438503 nafari yoki 91,8 foizi ish bilan ta‘minlangani to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. Ma‘lum vaqt o‘tgandan keyin ishga joylashganlarning 90 foizga yaqini o‘z ish joylarida ishlamayotgani ma‘lum bo‘lgan[4].

Kadrlar tayyorlash tizidagi mummolarni yechish va jahon tajribasining ilog‘or usullarini qo‘llash maqsadida, 2018-yildan boshlab kollejlari faoliyatini tubdan isloh qilishga kirishildi. Ushbu maqsadda 2018-yil 25-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313 Farmoni e‘lon qilindi. Farmon tadbirkorlik sohasi, shu jumladan, kichik biznes va xususi tadbirkorlik subyektlari uchun mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha kadrlarni maqsadli tayyorlashni nazarda tutadi. Farmon ijrosini ta‘minlash maqsadida, ko‘p tarmoqli kasb-hunar kollejlari o‘rnida, kasb-hunar maktablari qayta tashkil etildi. Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab, jami 93 ta shunday ta‘lim maskanlari tinglovchilarni qabul qila boshladi[5].

Respublikada kasb-hunar maktablarini tadbirkorlik sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini yangicha usulda yondashilgani, jahon tajribasi asosida tashkil etilganini e‘tirof etish joiz. Qolaversa, shunga o‘xshash kurslarni doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq. Masalan, Yaponiyada bu jarayon juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Yaponiya tadbirkorlari kichik va o‘rta biznesda ishlaydigan kadrlarni o‘qitish va qayta tayyorlashga katta e‘tibor berishadi. Rivojlangan G‘arb mamlakatlarida ham vaziyat shunday. Kadrlarni qayta o‘qitish va malakasini oshirish zarurati jahon iqtisodiyotining globallasuvi tufayli paydo bo‘ldi. XXI asrda ilg‘or texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Raqobatbardosh mahsulotlarni tashqi bozorga yo‘naltirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun ma‘lum bir mamlakatning tashqi bozorlari, raqobatchilari, shartlari va qonunchilik bazasi to‘g‘risida tezkor va aniq ma‘lumotlarga ega bo‘lish zarur. Bu o‘z navbatida, ishbilarmon kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish zarurligini keltirib chiqaradi[6].

Respublika biznes maktabi ta‘lim-tarbiya jarayonlarini aniq yo‘lga qo‘yishdan tashqari, xorijiy hamkor bilan birga, har ikki tomon uchun ham foydali bo‘lgan xalqaro



miqyosdagi anjumanlarda, seminarlarda faol ishtirok etib, muhim dasturlarni tatbiq etdi. Xususan, Gollandiyaning “MSR”, Daniyaning “Matador”, Vengriyaning “TEMPUS”, “TESKO”, Germaniyaning “GTS” va BMTning “YUNIDO” dasturlari 1999-2000 yillarda amalga oshirilgan bo‘lsa, 2023-2026 yillarga mo‘ljallangan “Ayollarni tadbirkorlikka o‘qitish” mavzusida Yevropa ta’limni va madaniyatni rivojlantirish agentligi tomonidan “EMPOWER” loyihasi e’lon qilingan bo‘lib, loyiha O‘zbekistonning 4 ta OTMsi va Yevropani 3 OTMisi bilan hamkorlikda bajarilmoqda. Ushbu loyiha O‘zbekiston hududida gender tengligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi ayol fuqarolarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirishdan iborat. Dastlabki bosqichda ayollar o‘z yurtdoshlari bo‘lgan muvaffaqiyatli tadbirkor ayollarning hikoyalari orqali ruhlantiriladi. Ular O‘zbekistondagi olti nafar ayol tadbirkor bilan uchrashib, ularning muvaffaqiyat yo‘li bilan yaqindan tanishadilar.

Qiziqish bildirgan ayollar saralab olinadi va ularga tadbirkorlikning asosiy ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Ushbu bilimlar ularning biznes sohasidagi tushunchalarini kengaytirib, mustaqil hayot sari ilk qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Loyiha sinov tariqasida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi, chunki bu yerda talabalarning 80 foizdan ortig‘ini qizlar tashkil etadi. Bu esa ayollarga turli sohalarida o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish hamda gender stereotiplari ta’siridagi kasblarda qolib ketishining oldini olishga yordam beradi. Ta’lim jarayoni onlayn shaklda tashkil etilib, unda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi[7].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlash yo‘lida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Dastlabki bosqichda tashkil etilgan muvofiqlashtiruvchi markazlar va kasb-hunar ta’limi muassasalari orqali aholini, ayniqsa yoshlar va ayollarni kasb-hunarga yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratildi.

Shu bilan birga, amaliyotda yuzaga kelgan muammolar, xususan, kadrlar tayyorlash tizimining mehnat bozori talablariga to‘liq mos kelmasligi, bitiruvchilarning barqaror bandligini ta’minlashdagi kamchiliklar tizimni yanada isloh qilish zaruratini yuzaga keltirdi. 2018-yildan boshlab amalga oshirilgan tub islohotlar esa kasb-hunar ta’limini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish, mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash hamda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratildi.

Xorijiy tajriba va xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan dasturlar, xususan, ayollarni tadbirkorlikka jalb etishga qaratilgan loyihalar mazkur yo‘nalishda yangi bosqichni boshlab berdi. Bu esa nafaqat gender tengligini ta’minlash, balki



iqtisodiy faollikni oshirish va jamiyatda tadbirkorlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, kadrlar tayyorlash tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish, uni xalqaro tajriba va mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanish va samarali tadbirkorlik faoliyatini ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. FVDA, 1220-fond, 1-ro'yxat, 88-ish, 90-91 varaqlar;
2. 1995-yil 29-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozor islohotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlarining kasb-hunar ta'limining yo'nalishini o'zgartirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 296-son qarori.
3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент.: Шарқ, 2000. – Б.422.
4. Болтабоева М. М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тadbirkorlikni rivojlanitirishdagi ish-tiroki (1991-2019 йиллар): Т.ф.ф.д. ... дисс. – Андижон, 2019. – Б. 93
5. O'zbekiston kollejlari barcha xohlovchilar o'qishi mumkin, darslarni adragoglar olib boradi. (Elektron resurs), Kirish rejimi: <https://sputniknews-uz.com>
6. O'z MA, M-37-fond, ro'yxat-1, 7597-ish, 41-varaq.
7. <https://kiut.uz/uz/institute/erasmus/projects/2/>